



XORAZM VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

XORAZM VILOYATINING  
DEMOGRAFIK HOLATI

2023- yil  
yanvar-dekabr



## XORAZM VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Xorazm viloyatida 2024- yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni 1995,6 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 37,5 ming kishiga yoki 1,9 % ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 659,8 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,1 %), qishloq aholisi soni 1 335,8 ming kishi (66,9 %) ni tashkil etdi.

## Doimiy aholi soni

**1 995,6** ming  
kishi

## Tabiiy o'sish

**(+) 39,3** ming  
kishi

## Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

## Shahar

**33,1%**

## Qishloq


**66,9%**

## Doimiy aholi sonining yillar bo'yicha taqsimlanishi



## Xorazm viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar


2023- yil yanvar-dekabr




## Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2024- yil 1- yanvar holatiga

Mehnatga layoqatli yoshdan kattalar



2024- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining 31,0 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,5 %i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,5 %i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Yanvar-dekabr oylarida doimiy aholi sonining tarkibi (ming kishi)**


**2023-yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha doimiy aholi soni va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati**




## Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1- yanvar holatiga



998,9 ming kishi




## Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi

1- yanvar holatiga, ming kishi

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha	<b>1958,1</b>	<b>1 995,6</b>	<b>101,9</b>
shaharlar :			
Urganch sh.	149,9	153,1	102,1
Xiva sh.	97,0	98,8	101,9
tumanlar:			
Bog'ot	172,6	176,1	102,0
Gurlan	154,5	157,2	101,7
Qo'shko'pir	178,9	182,3	101,9
Urganch	209,2	213,5	102,1
Hazorasp	202,2	206,0	101,9
Tuproqqa'l'a	57,9	59,3	102,4
Xonqa	194,9	198,4	101,8
Xiva	152,1	154,8	101,8
Shovot	177,1	180,4	101,9
Yangiariq	120,9	123,2	101,9
Yangibozor	90,9	92,5	101,8

### **Xorazm viloyati bo'yicha aholi zichligi**

*2024- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi*




Viloyatda 2024- yil 1- yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha 330 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 6 kishiga ortgan (2023- yil 1- yanvar holatiga 1 kv.km.ga 324 kishi bo'lган).

Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida 5103 kishi, Xiva shahrida 3293 kishi, Urganch tumanida 474 kishi, Hazorasp tumanida 458 kishi, Xonqa tumanida 461 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Tuproqqal'a tumanida 37 kishi, Yangibozor tumanida 272 kishi, Yangiariq tumanida 308 kishi, Qo'shko'pir tumanida 338 kishini tashkil etgan.

### **Xorazm viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi**

*1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi*



## QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR



**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti, kishi**

Urganch sh.	4559	30,1%
Xiva sh.	2485	25,4%
Bog'ot	4456	25,6%
Gurlan	3656	23,5%
Qo'shko'pir	4410	24,4%
Urganch	4638	21,9%
Hazorasp	5358	26,3%
Tuproqqa'l'a	1392	23,7%
Xonqa	4565	23,2%
Xiva	3517	22,9%
Shovot	4340	24,3%
Yangiariq	2810	23,0%
Yangibozor	2115	23,1%


### Shahar va tumanlar kesimida tug'ilshlar soni

2023-yil yanvar-dekabr, kishi

erkaklar	ayollar
2418	Urganch sh.
1266	Xiva sh.
2317	Bog'ot
1919	Gurlan
2228	Qo'shko'pir
2407	Urganch
2800	Hazorasp
755	Tuproqqa'l'a
2336	Xonqa
1854	Xiva
2202	Shovot
1429	Yangiariq
1123	Yangibozor

2023-yil yanvar-dekabr oylarida 48 301 ta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 24,4 promille ni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 1,3 promillega oshganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 23,1 promille ni tashkil etgan).


## O'limlar soni


**Yillar kesimida soni**
**8 467      9 671      9 463**
**Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)**
**9 446      9 004**


## Shahar va tumanlar kesimida vafot etganlar soni

*2023-yil yanvar-dekabr, kishi*


## Hududlar kesimida o'limlar soni va koeffitsiyenti, kishi




2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 9 004 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etgan hamda 2022-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan 0,3 promillega kamaygani kuzatildi (2022- yilda 4,9 promilleni tashkil etgan).

**O'lim (vafot etish) – tananing hayotiy faoliyatining biologik va fiziologik jarayonlarini to'liq to'xtashi;**

### **O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi**

2023- yil yanvar-dekabr, kishi



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining 55,3 %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,5 %i – o'simtalardan, 4,0 %i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 4,9 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,8 %i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 0,7 %i – yuqumli va parazitar kasalliklaridan, 19,8 %i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

**QAYD ETILGAN NIKOHLAR**

*Yillar kesimida soni*

*Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)*

**Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti, birlik**

Urganch sh.	1141	7,5%
Xiva sh.	858	8,8%
Bog'ot	1 532	8,8%
Gurlan	1 338	8,6%
Qo'shko'pir	1 448	8,0%
Urganch	1 545	7,3%
Hazorasp	1 877	9,2%
Tuproqqa'l'a	524	8,9%
Urganch	1 317	8,6%
Hazorasp	1 664	8,6%
Tuproqqa'l'a	295	111,8
Xonqa	1 118	8,2%
Xiva	1 166	8,1%
Shovot	1 104	8,0%
Yangiariq	799	982
Yangibozor	644	8,3%

**Shahar va tumanlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti  
2023-yil yanvar-dekabr, birlik**

shahar	qishloq	
1141	Urganch sh.	-
858	Xiva sh.	-
265	Bog'ot	1267
545	Gurlan	793
359	Qo'shko'pir	1 089
228	Urganch	1 317
213	Hazorasp	1 664
229	Tuproqqa'l'a	295
570	Xonqa	1 118
98	Xiva	1 166
352	Shovot	1 104
183	Yangiariq	799
117	Yangibozor	644

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 16 414 ta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 8,3 promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilga nisbatan 0,3 promillega kamaygani kuzatildi (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 8,6 promille bo'lgan).

**NIKOHDAN AJRALISHLAR**

*Yillar kesimida soni*

*Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)*

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti, birlik


**Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti**
*2023-yil yanvar-dekabr, birlik*


2023-yil yanvar-dekabr oylarida 2 322 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,2 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 0,1 promillega oshganligi kuzatildi (2022-yil yanvar-dekabr oylarida 1,1 promille bo'lgan).

## AHOLI MIGRATSİYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2023- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni 7 871 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami 9 679 kishini, migratsiya saldosi minus 1 808 kishini tashkil etdi. (2022- yil yanvar-dekabr oylarida minus 1 546 kishini tashkil etgan).

### Viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni

kishi

	2022 - yil yanvar- dekabr			2023- yil yanvar- dekabr		
	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	6685	8231	-1546	7871	9679	-1808
<i>shaharlar:</i>						
<b>Urganch sh.</b>	1761	1843	-82	2152	2446	-294
<b>Xiva sh.</b>	351	450	-99	448	638	-190
<i>tumanlar:</i>						
<b>Bog‘ot</b>	173	312	-139	186	347	-161
<b>Gurlan</b>	174	384	-210	189	481	-292
<b>Qo‘siko‘pir</b>	267	594	-327	258	539	-281
<b>Urganch</b>	1712	1225	487	2110	1504	606
<b>Hazorasp</b>	235	961	-726	295	931	-636
<b>Tuproqqał'a</b>	635	313	322	681	382	299
<b>Xonqa</b>	195	519	-324	210	580	-370
<b>Xiva</b>	380	574	-194	546	627	-81
<b>Shovot</b>	239	474	-235	255	539	-284
<b>Yangiariq</b>	338	326	12	319	365	-46
<b>Yangibozor</b>	225	256	-31	222	300	-78

## KO'CHIB KELGANLAR


**Yillar kesimida soni**
**Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)**


### Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti


*2023- yil yanvar-dekabr, kishi*


### Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti, kishi



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 7 871 ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 4,0 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 0,6 promillega ko'payganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 3,4 promille bo'lgan).

## KO'CHIB KETGANLAR

**Yillar kesimida soni**

**Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)**


## Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti, kishi

2446 Urganch sh.

638 Xiva sh.

347 Bog'ot

481 Gurlana

539 Qo'shko'pir

1504 Urganch

931 Hazorasp

382 Tuproqqa'l'a

580 Xonqa

627 Xiva

539 Shovot

365 Yangiariq

300 Yangibozor

### Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

*2023-yil yanvar-dekabr kishi*


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 9 679 ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 4,9 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 0,7 promillega ko'payganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 4,2 promille bo'lgan).

## Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘silib, o‘lganlar va muayan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayrıldi.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalikklar, patologik holatlар va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnataladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.



**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi**

*Tel: 62 224-65-08*